



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

ZAMONAVIY PUBLITSISTIKANING TILI VA USLUBI

Usmonova Nigora Abdulxamidovna

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada publitsistikaning jamiyat hayotidagi o‘rni, uning siyosiy, iqtisodiy, falsafiy va axloqiy jihatdan dolzarb muammolarni yoritishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Publitsistika real ijtimoiy hayot hodisalarini aks ettiruvchi, jamiyatdagi muhim jarayonlarga munosabat bildiruvchi hamda jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi muhim adabiy-ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: publitsist, jurnalistika, obrazlilik, obrazlar yaratishi, muallif, uslub, matbuot.

ЯЗЫК И СТИЛЬ СОВРЕМЕННОЙ ПУБЛИСТИКИ

Усмонова Нигора Абдулхамидовна

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, доцент

Аннотация

В данной статье анализируется роль публицистики в жизни общества, её значение в освещении актуальных политических, экономических, философских и нравственных проблем. Публицистика рассматривается как важное литературно-социальное явление, отражающее реальные события общественной жизни, выражающее отношение к значимым социальным процессам и формирующее общественное мнение.

Ключевые слова: публицист, журналистика, образность, создание образов, автор, стиль, пресса.

LANGUAGE AND STYLE OF MODERN PUBLICISM

Usmonova Nigora Abdulxamidovna

University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Associate Professor

Abstract

This article analyzes the role of publicistic writing in society and its significance in reflecting important political, economic, philosophical, and moral issues. Publicistic writing is considered an important literary and social phenomenon that represents real social life, expresses attitudes toward significant social processes, and contributes to the formation of public opinion.

Keywords: publicist, journalism, imagery, image-making, author, style, press.

Publitsistik materiallarni tayyorlashda muallif, albatta, publitsistik uslub talablarini bilishi kerak. Publitsistik uslub — ham ommaviy axborot vositalarida, ham og‘zaki chiqishlarda qo‘llaniladigan o‘zbek tilining kitobiy funksional uslublaridan biridir.

Publitsistik uslub o‘zbek adabiy tilining nutq uslublari tuzilmasida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida paydo bo‘ldi. Chunki bu davrga kelib, 1870-yilda o‘zbek tilidagi ilk gazeta — “Turkiston viloyatining gazetisi” chiqa boshladi. XX asr boshlarida esa nashriyot va vaqtli matbuot ishlari ko‘lamining yanada kengayishi hamda o‘zbek yozuvchilari ijodida badiiy publitsistikaning keng o‘rin olishi kabi omillar o‘zbek adabiy tilida publitsistik uslubning yuzaga kelishi va shakllanishida katta ahamiyat kasb etdi.

Rus olimi N.A. Baskakov tadqiqotlaridan birida [1; 125-b.] turkiy tillarning qadimgi taraqqiyot davrida badiiy (художественный), diniy (культурный) va ish-xizmat (деловой) uslublari bilan bir qatorda ilmiy-publitsistik (научно-публицистический) uslub ham bo‘lganini ta’kidlaydi. U ilmiy-publitsistik uslubga qadimgi uyg‘ur yodgorliklari hamda buddizm diniga oid falsafiy faktlarni misol qilib keltiradi.

Vaqtli matbuotda hozirgi zamonning muhim ijtimoiy masalalariga bag‘ishlangan materiallarning keng yoritilishi, radio va televideniye orqali siyosat hamda ijtimoiy hayot masalalariga doir ma’ruzalar, suhbatlarning muntazam eshittirib turilishi kabi omillar publitsistik uslubning taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Publitsistik uslub o‘zining yozma hamda og‘zaki ko‘rinishlariga ega. U gazeta, radio, kino publitsistikasi, ijtimoiy tarmoqlar va notiqlik uslubini o‘zida birlashtiradi.

Adabiy tilimizning boyishida publitsistik uslub alohida ahamiyatga ega. Chunki ijtimoiy-siyosiy hayotimizda ro‘y beradigan voqea-hodisalar, odatda, dastlab publitsistik asarlarda o‘z aksini topadi.

Hayotning dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag'ishlangan publitsistik bosh maqolalar, feleton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar publitsistik uslubning yozma turi namunalaridir [2].

Publitsistik uslubning og'zaki turiga esa notiqlik kiradi. O'tmishning mashhur notiqchilari og'zaki nutqdan ma'lum g'oyaviy maqsadlarni ifodalash hamda estetik ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida foydalanib kelganlar. Publitsistik uslubning og'zaki turiga kundalik voqealarga doir xalqaro tahlilnomalar, radio va televideniya chiqish qiladigan sharhlovchilarning nutqlari kiradi. Publitsistik uslubning yozma va og'zaki turlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ular publitsistik uslubning umumiy talablariga bo'ysunadi. Chunonchi, bu uslubning har ikkala turida publitsistikaga xos siyosiy faollik, hozirjavoblik, nutqda ta'sirchanlik, mantiqiy asoslanganlik, tashviqot va targ'ibot kabi xususiyatlar mavjud.

Ijtimoiy-siyosiy bilimlarni targ'ib qiluvchi va keng xalq ommasiga yetkazuvchi vosita sifatida bu uslub tilining rang-barangligi orqali kishilar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu uslubning yana bir xususiyati shundaki, unda qisqalik muhim sanaladi. Ya'ni, qisqa, lo'nda, tushunarli, yorqin va ixcham tilda yozish asosiy talablardan hisoblanadi.

Muallif munosabatining oshkora va aniq ifodalanishi ham publitsistikaning o'ziga xos umumiy belgilaridandir. Muallif hayot va voqelikka faol munosabatda bo'ladi va uning voqelikka bo'lgan munosabati faktlarni tanlashida, ularni o'z dunyoqarashiga mos tarzda, estetik yo'nalishi asosida mantiqiy tahlil qilishida hamda tilning emotsional-ekspressiv vositalaridan foydalanishida o'z ifodasini topadi. Publitsist yirik hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza, dalillar va asoslar vositasida tushuntirishi, fikrni isbotlashi bilan birga o'quvchi yoki tinglovchini ishonтира olishi, ularning ongi va his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsata bilishi lozim. Shu sababli publitsistik uslub o'zida yozma nutq uslublariga xos xususiyatlarni ham (masalan, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohaga oid atamalarining ishlatilishi), badiiy adabiyot uslubiga xos belgilarni ham (masalan, obrazli ifodalar, emotsional bo'yoqdorlik) birlashtiradi.

Publitsistik uslubda nutqning obrazlilik barqaror xarakterga ega [3]. Istiora, epitet, o'xshatish, mubolag'a, kesatish kabi his-tuyg'uga ta'sir etuvchi vositalar umumxalq tilidan olinadi. Publitsistik uslub kitobiy yozma nutqning sintaktik me'yorlariga asoslanadi. Bayonning keng va mufassal bo'lishi publitsistik uslub uchun xos xususiyatlardan biridir.

Publitsistik uslubda ko'pincha parallelizm, anafora (gaplarning boshida ohangdosh so'z va iboralarning takrorlanib kelishi), epifora (gap oxirida so'z yoki iboralarning takrorlanib kelishi) kabi intonatsion-sintaktik vositalar ishlatiladi. Tuzilishi bir xil bo'lgan bir yoki undan ortiq gap ketma-ket keladi. Bunday gaplarning bo'laklari ham, ularning shakli ham bir xil bo'lib, ifodaviylikni kuchaytiradi. Masalan: "Xolmatjon uchun Chortrakning sira qizig'i qolmagandi: na opa, na ona, na buvisi bor uning bu qishloqda".

Anaforada bir necha gap yoki xatboshi bir xil tuzilishda boshlanadi va parallelizm hosil qiladi, o'quvchi diqqati takrorlanuvchi tuzilmalarga tortiladi. Masalan: "Har bir so'z, har bir dalil, har bir taklifni qayta-qayta tekshirib ko'rish lozim."

Epifora — anaforaning aksi hisoblanadi. Bu usul yordamida takrorlangan tuzilmaning ma'nosi kuchaytiriladi. Masalan: "Qalb izzatirob chekib yig'lamasdi, ko'ngil dard bilan yig'lamasdi, yurak o'rtanib yig'lamasdi, balki butun vujud quvonib, baxtiyorlik daryosiga sho'ng'ib-sho'ng'ib yig'lardi". Publitsistikada bu vositalar fikrni mantiqiy ifodalash vazifasini bajarish bilan birga, gapning muayyan bo'lagini emotsional nuqtai nazardan alohida ajratib ko'rsatadi.

Publitsistikada bulardan tashqari antiteza va nutqda ohangni kuchaytirishga xizmat qiluvchi ritorik so'roq, ritorik murojaat singari vositalar ham uchraydi.

Antiteza (tazod) — mantiqiy jihatdan o'zaro zid bo'lgan ikki tushunchani qiyoslashdir. Masalan: "Egri ozadi, to'g'ri o'zadi". "Uning hayoti baland-past bo'lishi kerak emas, to'g'ri bo'lishi kerak" [4; 105-b.].

Ritorik so'roq gaplarda ifodalangan fikr sof so'roq bo'lmay, balki so'roq shakli orqali hukm ifodalanadi. Masalan: "Yigit uchun mardlik qahramonlikdan o'zga ulug'roq, oliyroq bir fazilat bormi?!" "Qaysi ota o'z farzandini sevmaydi?!"

Ritorik so'roq gaplar nutqda kuchaytiruvchi uslubiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan: "Asrlar mobaynida qonli fojearlar, halokatli ixtiloflar, o'lim va vayronalik keltiruvchi urushlar jamiyatni chulg'ab, inson boshiga nimalarni solmadi?!"

Publitsistik uslubning xarakterli belgilaridan biri nutqning ko'pincha birinchi shaxs nomidan ifodalanishida namoyon bo'ladi. Publitsistik uslubda ayrim hollarda bayon uchinchi shaxs tilidan ham ifodalanadi. Masalan:

“... Safarlarim chog‘i turli sabablarga ko‘ra, o‘zga yurtlarda qolib ketgan millatdoshlar bilan hamsuhbat bo‘ldim, afsus-nadomatli xotiralarini tingladim. Dili pok, qo‘li pok, pokiza niyatli odamlar uchun yurt eshiklari hamisha ochiqligini qayta-qayta tushuntiraman. “Yashang vatandor, nasib qilsa boramiz, albatta”, deyishadi. “Vatandosh” deyishga ich-ichlaridan kelayotgan xo‘rsiniq izn bermaydi, chog‘i...” [5]

Yuqoridagi iqtibos taniqli jurnalist Ahmadjon Meliboyev qalamiga mansub publitsistik materialdan olingan. Shu kichik parchada ham muallif mahoratini ko‘rish mumkin. Birinchi galda so‘zni his qilish, mazmunga mos so‘zni topib ishlatish mahorati diqqatni tortadi. Masalan: “millatdosh”, “vatandor”, “vatandosh” kabi birliklar. Birinchi jumlada “millatdosh” so‘zi o‘z o‘rnida qo‘llangan, chunki vatandan yiroqda yashayotgan kishini “vatandosh” deb bo‘lmaydi (garchi qachonlardir vatanda yashagan bo‘lsa ham). Shu bois muallif topqirlik bilan “millatdosh” so‘zini qo‘llaydi. U yangi “vatandor” so‘zini ham ijod qilgan. Bu, albatta, ijodkor mahoratidan dalolat beradi.

Matndagi “men” muallifning niqobi yoki uslubiy maqsadi emas, balki ifodalanayotgan axborotni o‘quvchilarga ochiq yetkazish imkoniga ega bo‘lgan muallif “men”idir. Ba’zi hollarda “men” o‘rnida “biz” shakli ham qo‘llanadi. Publitsistik uslubda, odatda, faqat muallif nutqi bayoni ifodalanadi. Ayrim hollarda ko‘chirma gap qo‘llansa-da (intervyu va reportajlarda), ular muallif nutqi bilan aralashtirilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Баскаков Н. А. Тюркские языки. – Москва, 1960; 2006.
2. Sayfullayeva R. R., Mengliyev B. R., Boqiyeva G. H.
3. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2019-yil 14-iyun.
4. Irnazarov Q. T. va boshqalar. Hozirgi zamon jurnalistikasi. – Toshkent: Aloqachi, 2008.
5. Toshpo‘latova N. Q. va boshqalar. Jurnalistika. Bosma ommaviy axborot vositalarida janrlar va mahorat masalalari. V jild. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2019.